


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida Jizzax viloyatida 2754 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 698 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2218 ta (18,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14226 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2290	2159	595
 Sanoat	2381	2266	544
 Qurilish	1402	1353	295
 Savdo	2832	2645	432
 Tashish va saqlash	535	512	69
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1016	955	155
 Axborot va aloqa	194	170	20
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	207	204	29
 Boshqa turlari	4112	3962	615




Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar

2019 yilning 1 yanvar holatiga 14969 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 18,9 % savdo, 15,9 % sanoat, 15,3 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 9,4 % qurilish, 6,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa hamda 27,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

1-diagramma

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning o'sishi, foizda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (4596 ta), Sharof Rashidov (2415 ta), Zomin (1210 ta) va G'allaorol (1130 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangiobod (326 ta), Zafarobod (430 ta) hamda Arnasoy (442 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **14226** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2218 ta (18,5 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 18,6 %i savdo faoliyati, 15,9 %i sanoat sohasi, 15,2 %i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,5 %i qurilish, 6,7 %i yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,6 %i tashish va saqlash sohasi, 1,4 %i sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 1,2 %i axborot va aloqa sohasi va 27,9 %i esa boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2-diagramma

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (4356 ta), Sharof Rashidov (2362 ta), Zomin (1145 ta), G'allaorol (1126 ta) va Forish (1014 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha, Yangiobod (323 ta), Zafarobod (367 ta) hamda Arnasoy (441 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

3-diagramma

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, foizda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.01.2017 y.

• 11834 ta

01.01.2018 y.

• 12008 ta

01.01.2019 y.

• 14226 ta




Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2754 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 33,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahri (739 ta), Sharof Rashidov (432 ta), Zomin (224 ta) va G'allaorol (221 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangiobod (69 ta), Mirzacho'l (80 ta) hamda Zafarobod (88 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

4-diagramma

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (595 ta), sanoat (544 ta), savdo (432 ta) va qurilish (295 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (20 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (29 ta) hamda tashish va saqlash (69 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


1-jadval

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Jizzax viloyati bo'yicha jami	1551	100	2056	100	2754	100
Savdo	366	23,6	249	12,1	432	15,7
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	342	22,1	585	28,5	595	21,6
Sanoat	252	16,2	409	19,9	544	19,8
Qurilish	145	9,3	160	7,8	295	10,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	116	7,5	161	7,8	155	5,6
Tashish va saqlash	97	6,3	60	2,9	69	2,5
Axborot va aloqa	30	1,9	23	1,1	20	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16	1,0	35	1,7	29	1,1
Boshqa turlari	187	12,1	374	18,2	615	22,3

5-diagramma

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi o'sishi, foizda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






Tijorat korxonalari

2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatda 11239 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3830 ta, oilaviy korxonalar – 511 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6564 ta va boshqaar shakldagilar 334 tani tashkil etgan.

6-diagramma

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining ulushi, foizda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 121 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 47,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 91 tasi qo'shma korxonalar, 30 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

7-diagramma

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahar (57 ta yoki jamidagi ulushi 47,1 %), Zomin (10 ta yoki 8,3 %), G'allaorol va Forish tumanlari (9 ta yoki 7,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirzacho'l (1 ta yoki 0,8 %), Arnasoy, Baxmal, Zarbdor va Zafarobod (3 ta yoki 2,5 %), va Yangiobod tumanlari (4 ta yoki 3,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 70 tani (57,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 20 tani (16,5 %), savdoda 16 tani (13,2 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 tani (4,1 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tani (0,8 %), axborot va aloqada 2 tani

(1,7 %), tashish va saqlashda 3 tani (2,5 %) va qurilishda 4 tani (3,3 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

8-diagramma

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 46 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 13 ta, Rossiya Federatsiyasi - 11 ta, Turkiya Respublikasi – 11 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 3 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi – 2 ta, Isroil Respublikasi – 2 ta, Turkmaniston Respublikasi – 2 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta va Amerika Qo'shma Shtatlari – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

9-diagramma

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (17 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (14 ta), savdo (9 ta), qurilish (2 ta) va boshqa faoliyat turlari (4 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

2-jadval

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi


	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan, %	Jami	Umumiy soniga nisbatan, %
Sanoat	9	69,2	17	37,0
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	9	69,2	17	37,0
Qurilish	-	-	2	4,3
Savdo	-	-	9	19,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	2,2
Axborot va aloqa	-	-	1	2,2
Boshqa turlari	1	7,7	2	4,3



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2019 yil 1 yanvar holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11197 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 20,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3664 tasi (32,7 %) Jizzax shahri, 2044 tasi (18,3 %) Sharof Rashidov, 866 tasi (7,7 %) G'allaorol hamda 836 tasi (7,5 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11197 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2635 tasi (23,5 %) – savdo, 2247 tasi (20,1 %) - sanoat, 2125 tasi (19,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1350 tasi (12,1 %) - qurilish, 953 tasi (8,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 509 tasi (4,5 %) - tashish va saqlash, 152 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, 134 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1092 tasi (9,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

10-diagramma


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2319 dan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 20,3 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (3664 ta), Sharof Rashidov (2044 ta), G'allaorol (866 ta) va Zomin tumanlari (836 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Zafarobod (226 ta), Yangiobod (245 ta) hamda Arnasoy (309 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

11-diagramma

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2635 ta), sanoatda (2247 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (2125 ta), qurilishda (1350 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi (953 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (134 ta), axborot va aloqada (152 ta) hamda tashish va saqlashda (509 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 542 tani tashkil etib, ulardan 511 tasi yoki 94,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 45,3 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,1 % yoki 210 tasi sanoat, 25,0 % yoki 128 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,0 % yoki 87 tasi qishloq, o'rmon va baliq

xo'jaligi, 9,0 % yoki 46 tasi savdo, 1,0 % yoki 5 tasi qurilish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, hamda 5,9 % yoki 30 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

12-diagramma

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2018 yilning yanvar - dekabr oylarida jami 643 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan - 462 taga tugatish kamaygan.


Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 1393 ta, 2017 yilda 1105 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 1436 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 462 taga tugatish kamaygan.

13-diagramma

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tugatilgan 643 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 157 tasi (24,4 %) savdo, 109 tasi (17,0 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 104 tasi (16,2 %) sanoat, 82 tasi (12,8 %) qurilish, 53 tasi (8,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 26 tasi (4,0 %) tashish va saqlashda, 8 tasi (1,2 %) axborot va aloqada, 6 tasi (0,9 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 98 tasi (15,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi savdo va qishloq va o'rmon xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

3-jadval


Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	1105	100	643	100	-462
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	124	11,2	109	17,0	-15
sanoat	140	12,7	104	16,2	-36
qurilish	111	10,0	82	12,8	-29
savdo	288	26,1	157	24,4	-131
tashish va saqlash	37	3,3	26	4,0	-11
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	70	6,3	53	8,2	-17
axborot va aloqa	16	1,4	8	1,2	-8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	179	16,2	6	0,9	-173
boshqa turlari	140	12,8	98	15,3	-42

2018 yilda 2319 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan – 265 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 155 tasi (27,0%) savdo, 106 tasi (18,4 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 104 tasi (18,1 %) sanoat, 82 tasi (14,3 %) qurilishda, 53 tasi (9,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 26 tasi (4,5 %) tashish va saqlashda, 7 tasi (1,2 %) axborot va aloqada, 3 tasi (0,5 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 39 tasi (6,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan, foizda DINAMIKASI (+,-)



Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda.

2018 yilda Sharof Rashidov - 92 ta, G'allaorol - 35 ta, Paxtakor - 30 ta hamda Zomin tumanlarida - 29 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-83-65 (66)